



Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari

Habibullayev Ubaydulloxon Rahmatjon o'g'li –
Farg'ona davlat universiteti
“Pedagogika” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Intellekt, ijodkorlik, intellektual madaniyat tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi. O'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, shuningdek, ta'lim sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar asosida mazkur kompetentlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** intellekt, ijodkorlik, kompetentlik, intellektual madaniyat, jismoniy tarbiya o'qituvchisi, ta'lim.*

Теоретические основы развития интеллектуально-творческой компетентности будущих учителей физической культуры

***Аннотация.** В данной статье анализируются теоретические основы развития интеллектуально-творческой компетентности будущих учителей физической культуры. Раскрывается сущность и содержание понятий интеллект, креативность, интеллектуальная культура. На основе научных взглядов отечественных и зарубежных ученых, а также нормативно-правовых документов, регулирующих сферу образования, освещается педагогическое значение формирования данной компетентности.*

***Ключевые слова:** интеллект, креативность, компетентность, интеллектуальная культура, учитель физической культуры, образование.*

Theoretical foundations for developing the intellectual and creative competence of future physical education teachers

***Annotation.** This article analyzes the theoretical foundations for developing the intellectual and creative competence of future physical education teachers. The essence and content of the concepts of intelligence, creativity, and intellectual culture are revealed. Based on the scientific views of national and foreign scholars, as well as regulatory and legal documents governing the field of education, the pedagogical significance of forming this competence is highlighted.*

***Keywords:** intelligence, creativity, competence, intellectual culture, physical education teacher, education.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri – yuqori intellektual salohiyatga ega, ijodiy fikrlaydigan, innovatsion yondashuvlarni egallagan pedagog kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Ayniqsa, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining nafaqat kasbiy-amaliy tayyorgarligi, balki ularning intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'lim olish huquqi va shaxsning har tomonlama rivojlanishi davlat tomonidan kafolatlanishi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida "ijodiy va intellektual rivojlangan shaxsni shakllantirish" masalasi, "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasida pedagog kadrlarning innovatsion va kreativ kompetentligini rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilanganligining o'zi ham mazkur masalaning bugungi kundagi dolzarbligini yaqqol namoyon qilmoqda. Qolaversa, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida bilimning o'zi yetarli emas, balki kreativlik, tanqidiy tafakkur, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda intellektual va ijodiy kompetentlikni shakllantirish masalasi ilmiy jihatdan asoslab berilishi zarur.

Zero, "...bugungi kunda o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari hamda pedagogik aspektlari, uni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish, aynan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari, texnologiyalarni joriy etish muammolari doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar..." ning ahamiyati dolzarb masalaga aylanmoqda.

Shuning uchun ham bo'lajak kadrlarda o'zining kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birgalikda ularda intellektual va ijodiy kompetentlikni rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali ularning kasbiy faoliyatida kreativlik, zakovatlilik, bilimdonlik va teran tafakkurni namoyon qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Ilmiy adabiyotlarda "intellekt" tushunchasi lotincha intellectus – "anglash", "tushunish", "fahmlash" ma'nolarini anglatib, insonning aqliy qobiliyatlarini ifodalovchi kategoriya sifatida talqin etiladi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida intellekt "insonning aqliy qobiliyati, borliqni ongda aks ettirish, fikrlash, o'rganish va muammolarni hal qilish layoqati" sifatida izohlanadi.

Intellekt individning sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur, xayol, diqqat kabi butun bilish (ijodkorlik) qobiliyatlari tizimidan iborat. Umumiy aqliy qobiliyatni ifodalovchi

intellekt tushunchasi insonning muayyan sharoitga moslashuvi bilan bog'liq xulq-atvor fazilatlarini umumlashtiradi. Shunday qilib, intellekt, bilish va har qanday faoliyatning samaradorligini ta'minlovchi, boshqalariga asos bo'luvchi umumiy qobiliyat hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, u muayyan ijtimoiy muammolarni inson aqli yordamida samarali va aniq hal etish imkoniyatidir.

Insonning aqliy qobiliyati natijalari intellektual mulk atamasi bilan ifodalanadi. Demak, intellektual-ijodiylikni aqliy qobiliyat, bilim, tanqidiy tafakkur, dunyoni ilmiy bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati, turli masalalarni individual hal qilishi, oqilona ish tutishi, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqatining yuksak ko'rinishi deb atash mumkin.

Rus olimi V.B.Tarasovning fikricha, "intellekt individning nisbatan barqaror aqliy qobiliyatlar tizimidan iborat bo'lib, u shaxsning faoliyat samaradorligini belgilaydi".

Ma'lumki, ta'lim tizimining samaradorligi u yetishtirayotgan mutaxassislarning salohiyati bilan o'lchanadi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasasi yuksak intellektual sifatlarga ega bo'lgan, kelajakda o'z ishining ustasi bo'lib yetishishi uchun bilimli shaxsni tarbiyalashga majbur bo'lmoqda. Bu vazifani hal qilishning ma'lum murakkabliklari mavjud bo'lib, ular "fan va texnologiyalarning rivojlanish darajasi bilan ta'lim muassasalari bitiruvchilarining intellektual rivojlanishi darajasi o'rtasidagi tafovut, ya'ni uzilishdan iborat bo'lib, hozirda ushbu muammo bir qator mualliflar tomonidan faol muhokama qilinmoqda". Bir tomondan, intellektual vositalar yuqori marralarga erishishga yordam bersa, ikkinchi tomondan "intellekt tanqisligi davri yaqinlashib kelmoqda", bu o'z navbatida jamiyatning intellektual zahira darajasining pasayishiga olib keladi. Tadqiqotlarga ko'ra, irsiy imkoniyat qanchalik katta bo'lmasin, u ma'lum ijtimoiy muhitda tarbiyalanmasa yoki ijtimoiy muhit qanchalik ijobiy bo'lishiga qaramasdan shaxsda irsiy imkoniyat tabiatan mavjud bo'lmasa, bunday shaxslarda yuqori iqtidorni ko'rish qiyin. Bu qarashni asoslash uchun Loyd Morgan boshchiligidagi olimlar insonlar intellekti va hayvon intellekti tushunchalarini tahlilini o'tkazadi va hayvonlarda intellektual jarayon yuz bermasligi farazini ilgari suradilar. Demak, har bir insonda ma'lum irsiy imkoniyatlar avloddan-avlodga berilgan bo'ladi, ushbu imkoniyati ma'lum ijtimoiy muhitda shakllanishi, yuksalib borishi lozim. Buning uchun birinchi navbatda, ilm-fanga qiziqishi yuqori bo'lgan, uni e'zozlay oladigan, kitobni yuksak qadriyat sifatida qadrlaydigan ijtimoiy muhitni, ta'lim muassasasini shakllantirish zarur bo'ladi.

Intellektual madaniyatni rivojlantirish jarayoni talabaning intellektual faoliyatining rivojlanishi bilan ham bog'liq. Intellektual ko'nikmalar o'zida xotiraning rivoji; idrok etishning rivoji; tasavvurlarning rivoji; diqqatning rivojini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ingliz olimi N.Humphrey esa intellektning ijtimoiy vazifasini "ijtimoiy muammolarni oldindan ko'ra bilish va ularni prognoz qilish qobiliyati" bilan bog'laydi.

Demak, intellektual-ijodiylik shaxsning bilim, tafakkur, tanqidiy yondashuv, muammolarni innovatsion hal qilish hamda ijodiy faoliyat olib borish qobiliyatlarining yuksak darajasini ifodalaydi.

Bo'lajak mutaxassislarning intellektual-ijodiy salohiyati o'z sohasi bo'yicha futurologik funksiyani bajara olishi bilan o'lchanishi lozim. Bu mezon Amerika universitetlarida XX asrning boshlaridayoq amaliyotga kiritilgan. Shunday ekan, intellektni tafakkurdagi o'ziga xos jarayon ekanligini anglab yetish va shu asosda unga munosabatda bo'lish kerak.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Insonning intellektual imkoniyatlarini ko'satib beruvchi, uning salohiyatini oshiruvchi shakl xotiradir. Xotira insonning bilish faoliyatidagi muhim zanjir bo'lib, u asosida narsa va hodisalar obrazi bir-biri bilan bog'lanadi va yangi bilimlar yaratiladi. Inson xotirasi bosqichma-bosqich, quyidan yuqoriga tomon olingan bilimlar, olib borilgan mashg'ulotlar asosida mustahkamlanadi va boyib boradi. Ba'zi mutafakkirlarning fikricha, insoniyatning bugungi tamaddunidagi ulug'vorlik undagi o'ziga xos xususiyat – xotiraning mavjud ekanligidadir. Shu bois bo'lajak kadrlarda intellektual ko'nikmalarni yuksaltirishning muhim pedagogik vazifalaridan biri ilm oluvchida mustahkam va kuchli xotirani shakllantirishdir. Chunki kuchli xotira, teran tafakkur va ilm olish istagi unda intellektual ongni yuzaga chiqaradi. Ijtimoiy jihatdan intellektuallik intellektual ehtiyojga bog'liq bo'lib, jamiyatning ilm-fanga ehtiyoji va talabi, ta'lim tizimining rivojlanganlik darajasi, texnika va texnologiyani mavjudligi va talabaning individual xususiyatlari kabi omillardan kelib chiqadi.

Insoniyat intellektual madaniyatining mohiyatini anglash uchun uning shakllanish jarayonini ko'rib chiqishi zarur. Har bir ijtimoiy taraqqiyotda jamiyatlar o'ziga xos intellektual salohiyatga ega bo'lgan. Buni biz o'sha jamiyatlardagi tafakkuriy o'zgarishlardan bilishimiz mumkin. Zero, insoniyat tafakkuri asrlar oshgani sayin kengaymoqda. Insoniyat intellektuallashuvi jarayonining asrlar davomida rivojlanishi natijasida intellektual xarakter ham shakllandi. Intellektual xarakter – aqliy qobiliyati, salohiyati, bilimi, tafakkuri, dunyoqarashi yuksalgan inson, olim, mutafakkirning individual hayotiy tamoyillariga ilmiy tamoyillarni ko'chishi va umumiy hayotiy-ilmiy normalarni shakllanishidir.

Intellektual madaniyat jamiyatning ilmiy salohiyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. V.I.Vernadskiy intellektual madaniyatni jamiyat taraqqiyotining biosferaviy omili sifatida baholab, “inson tafakkuri taraqqiyoti jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi”, deya ta'kidlaydi. O'zbek olimi A.X.Saidov intellektual rivojlanishni inson huquqlari bilan uzviy bog'lab, “qulay ijtimoiy va ta'lim muhiti shaxs intellektual salohiyatini rivojlantirishning asosiy shartidir”, deb hisoblaydi.

Ta'lim tizimi jamiyatning intellektual potensialini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy mexanizm bo'lib, uning samaradorligi yetishtirilayotgan mutaxassislarining kompetentligiga bog'liqdir. Ta'lim-tarbiya orqali yoshlar dunyoqarashini kengaytirish va intellektual salohiyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Sababi bugungi kunda intellektual salohiyati yuksak jamiyatlargina ravnaq topayotgani ma'lum bo'lmoqda. Zero, “...kadrlar tayyorlash tizimini fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bilan integratsiyalashuvini ta'minlash jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy salohiyatini rivojlantirish...” insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichida doim ustuvor bo'lib kelgan. Mamlakatimizda ham bo'lajak kadrlarning intellektual salohiyatini oshirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatish va shu orqali iqtisodiy yuksaklikka erishish vazifalari yuzaga chiqmoqda. Buning uchun esa bo'lajak kadrlarda o'qitish jarayonida fundamental bilimlar berish bilan birga, intellektual ko'nikmalarini ham rivojlantirish zarur.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi nafaqat jismoniy mashqlarni o'rgatuvchi mutaxassis, balki pedagog, tarbiyachi va ijtimoiy yetakchi sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli, uning intellektual va ijodiy salohiyati yuqori bo'lishi zarur. Sh.X.Xidirovning ta'kidlashicha, “jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligida intellektual komponent yetakchi o'rin tutadi, chunki u ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish imkonini beradi”. Amerikalik olim J.Guilford ijodkorlikni intellekt tarkibiy qismi sifatida ko'rib, divergent fikrlashni kreativ faoliyatning asosiy mezoni deb hisoblaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish lozimki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirish – ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Intellekt, ijodkorlik va kompetentlikning uzviy birligi pedagogning kasbiy faoliyatida innovatsion yondashuvlarni samarali qo'llash imkonini beradi. Shu bois, oliy ta'lim jarayonida mazkur kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – Toshkent, 2023.
4. P.Drucker Innovation and Entrepreneurship. – New York: Harper, 2007. – 23 p.
5. Sh.Qayumov Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish: ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – J.: 2023. 5-bet.
6. S.L.Rubinshteyn Osnovy obshchey psixologii. – M.: Pedagogika, 2002. 45-b.
7. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 5-jild. – Toshkent: O'zME, 2003. 112-b.
8. Тарасов В.Б. Интеллект и деятельность. – М.: Наука, 1998. С. 78.
9. А.А.Вербицкий Противоречия образования и культуры Психология образования: Проблемы и перспективы. М., 2004. 3 с.
10. А.А.Зиновьев Высшее образование и логика интеллекта Alma mater. 2004. №5. 11-13 с.
11. Roback A.A. Intelligence and Intellect. The Journal of Philosophy, Vol. 19, No. 12 (Jun. 8, 1922), 325-330 p.
12. Энциклопедия педагогических технологий. – СПб.: КАРО, 2005. – С.56
13. Вернадский В.И. Научная мйсл как планетное явление. – М.: Наука, 1991. – 56 с.
14. A.X.Saidov Inson huquqlari va ekologiya. – Toshkent: TDYU, 2012. 94-b.
15. O.Sirojov Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining valeologik kompetentligini rivojlantirish tehnologiyalari: ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – Ch: 2023. 5-bet.
16. Sh.X.Xidirov Ekologik va pedagogik kompetentlik asoslari. – Toshkent, 2016. 118-b.
17. J.P.Guilford The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. p. 203.